



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida malaka oshirishning
“Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini
bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. 2025-yil 1-yanvardan boshlab maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari uchun malaka oshirishning “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlari (shakllari) joriy etilsin.

2. Quyidagilar:

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari uchun malaka oshirishning “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil etish tartibi 1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari uchun malaka oshirishning “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil etish bo‘yicha Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi (keyingi o‘rinlarda – Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi) tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari uchun malaka oshirishning “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil etish bo‘yicha hududiy ishchi guruhlarining namunaviy tarkibi (keyingi o‘rinlarda – hududiy ishchi guruhlari) 3-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari uchun malaka oshirishning “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil etish bo‘yicha tuman (shahar) ishchi guruhlarining namunaviy tarkibi keyingi o‘rinlarda – tuman (shahar) ishchi guruhlari) 4-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida guruhlar kesimida “Metodik mahorat soati” o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishning namunaviy jadvali 5-ilovaga muvofiq;

“Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlari yakunida pedagog xodimlarga beriladigan sertifikat shakli namunasi 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi (S.Radjabov)ga:

bir hafta muddatda hududiy hamda tuman (shahar) ishchi guruhlar bilan hamkorlikda “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarining mazmun-mohiyatini maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog xodimlariga tushuntirish ishlarini tashkil qilish;

“Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarining o‘quv materiallarini (o‘quv reja, o‘quv dasturi, taqdimot, tarqatma materiallar, nazorat va baholash materiallari) ishlab chiqish uchun Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining malakali professor-o‘qituvchi va mutaxassislaridan iborat ishchi guruh tarkibini shakllantirish;

“Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini belgilangan tartibga qat’iy amal qilgan holda o‘tkazilishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti (N.Abdunazarova) ikki hafta muddatda malaka oshirishning “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarining o‘quv reja va dasturlarini ishlab chiqsin.

5. Hududiy hamda tuman (shahar) ishchi guruhlariga:

malaka oshirishning “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini joriy etishda belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishini ta’minlash;

2024-yil 20-noyabrga qadar “Metodik mahorat kuni” tadbirlari o‘tkaziladigan tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlariga hududdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini biriktirish va ro‘yxatini tasdiqlash;

o‘quv yili yakunida “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini joriy etish doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobotlarni Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga:

2025-yil 1-yanvardan boshlab “Metodik mahorat kuni” tadbirlarida trener (mentor) sifatida faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor o‘rinbosarlariga tegishli tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari huzuridagi maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini rag‘batlantirish jamg‘armalari hisobidan lavozim maoshining 20 foizi miqdorida qo‘shimcha har oylik ustama haq to‘lanishini nazorat qilish;

2025-yil 1-yanvardan boshlab tayanch maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Metodik mahorat kuni" tadbirlarini o'tkazish bilan bog'liq (elektron doska, konselyariya tovarlari, ajratilgan xonani jihozlash) xarajatlarni ushbu tashkilotlarning 4-guruh xarajatlar smetasida rejalashtirish choralarini ko'rish vazifalari yuklatilsin.

7. Axborot xizmati (D.Sobirova) maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlari uchun malaka oshirishning "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati" tadbirlarini joriy etish jarayonlarini vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritib borilishini ta'minlasin.

8. Devonxona (H.Raximbayeva) bir kun muddatda ushbu buyruqni vazirlik markaziy apparati tarkibiy va hududiy bo'linmalari hamda tizim tashkilotlariga yetkazsin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.
2024-yil "8"-noyabr,
362-son